


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

70610801- Pochta aloqasi texnologiyasi magistratura mutaxassisligining

MALAKA TALABI

Toshkent - 2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil "1" avgust dagi 277-sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	8
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i	11

1.Umumiy tavsifi

70610801- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talablarining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70610801- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining magistrarlari;

magistratura mutaxassisligining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan talabalar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

70610801-Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi – pochta aloqasida logistik inenjeneriya, elektron tijorat, raqamli texnologiyalar, internet-marketing sohalariga oid fanlarni o'qitish, Tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznesda, pochta xizmatlarini tashkil qilish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek, pochta aloqasi xizmatlarini tashkil etishda pochta orqali e-reklama, internet marketing, elektron tijoratning istiqbolini belgilash.

Kasbiy ko'nikma pochta aloqasini tashkil etishga yo'naltirilgan usullar, metodlar va uslublari majmuasini o'rganish orqali erishish.

Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrnlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

raqamli texnologiyalar va transport vazirligi tizimidagi korxonalarda;

pochta sohasiga tegishli korxonalar va tashkilotlarda;

boshqa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida;

logistka kompaniyalarida;

milliy xavfsizlik xizmatlari va ichki ishlar organlarida;

70610801- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratura bitiruvchilari fan sohasidagi magistratura mutaxassisligini tamomlagandan so'ng, professional ta'lim, oliy ta'lim muassasalarida pochta aloqasi texnologiyalari, ta'minot va sotuvni boshqarishda elektron xizmatlar va pochta jo'natmalarini yetkazib berishda boshqarishning raqamli texnologiyalari, transportda raqamli texnologiyalar va intellektual transport tizimlari, texnologik jarayonlarni modellashtirish va buyurtmalarni boshqarish, omborlarni boshqarishda axborot tizimlari, xalqaro yetkazib berish zanjirlarida raqamli texnologiyalar, yetkazib berish zanjirlarini optimallashtirish modellari va vositalari fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, pochta sohasidagi tashkilotlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *pedagogik;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *tadbirkorlik faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70611801- Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura mutaxassisligi bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (magistratura mutaxassisligi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olgan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

pochta sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ishlab chiqarish faoliyatida:

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

pochta sohasi qurilmalarida dasturiy ta'minot ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;

pochta sohasi qurilmalarida dasturiy ta'minot ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini ta'minlash;

ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

axborot-kommunikatsiya tizimlarining texnik vositalari, qurilmalari, uzatish, saqlash va qayta ishlash tizimlarini yig'ish va ishga tushirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

fuqarolik jamiyatining dolzab masalalarini bilish, O'zbekistonning rivojlantirish strategiyasiga asoslangan bilimlarga ega bo'lish, mustaqil tahlil qilish, Vatan tarixi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyalar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olish va ilmiy asoslash, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan nuqtai nazarga ega bo'lish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zurruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullaridan foydalanish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish;

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

pochta sohasida loyihalash usullarini tadqiq qilish;

ma'lumotlar qayta ishlash jarayonlarini tahlil qilish, sintezlash va optimizatsiyalash usullarini qo'llash, mahsulotni sertifikatlashtirish;

pochta sohasi qurilmalarining dasturiy ta'minotini yaratishda axborot bilan ishlash jarayonlari bo'yicha matematik modellarni qo'llash;

Pedagogik faoliyatida:

Professoinal ta'limi muassalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy xujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

pochta aloqasi texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish loyihalarini ishlab chiqishi;

pochta aloqasida innovasion texnologiyalariga oid loyihalarni ishlab chiqishi;

bajarilayotgan tajriba va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informasion va imitasion modellarni ishlab chiqishi va tadqiq qilishi;

namunaviy va avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni ishlab chiqishi va ularni qo'llashi;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chikish va amalga oshirish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

-ilmiy va ilmiy-texnikaviy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyatida foydalana olishi, asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy va ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyatida foydalana olishi;

- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

mutaxassislik ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirish; mutaxassislikka muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari;

ishlab chiqarish, yetkazib berish, taqsimlash, zahiralarni boshqarish, ombor, transport logistikasida biznes jarayonlarini tahlil qilish, modellashtirish va optimallashtirish;

ta'minot zanjirlarida bulutli texnologiyalardan, yetkazib berish va tarqatish boshqaruvida elektron xizmatlardan, transport jarayonlarida va intellektual transport tizimlarida axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

elektron biznes uchun optimal pochta yechimlarini tashkil etish, pochta xizmatlarini ilgari surish uchun internet-marketingni qo'llash;

pochta sohasida noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida to'g'ri qaror qabul qilish, tashish va bojxona tartib-qoidalarida elektron hujjat aylanishini amalga oshirish, ta'minot zanjirlarida moliyaviy oqimlarni hisoblab chiqish;

sanoat 4.0 kontekstida ilg'or tajribalar, zamonaviy metodologiya va tegishli vositalar hamda raqamli pochta texnologiyalarini ishlab chiqish;

zamonaviy usullarga asoslangan raqamli ta'minot zanjirlarida resurslarni optimallashtirish va qo'shimcha qiymat yaratish uchun innovatsion yechimlarni asoslash;

pochta va ta'minot zanjirini boshqarishning funksional sohalarida pochta jarayonlarini raqamlashtirish va optimallashtirish uchun zarur bo'lgan zamonaviy vositalardan foydalanish;

pochta aloqasi xizmatlariga va pochta va axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi -omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

me'yoriy-xuquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishni bilish.

jamoada ishlash uchun professional va psixologik bilim va ko'nikmalar, uzluksiz o'rganish va martaba o'sishi, maqsadlarga erishish qobiliyatlari borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda ma'lumotlar ilmini qo'llay bilishi;

- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha ma'lumotlar ilmidan foydalanishda, ularga ta'sir;

- etuvchi omillarni aniklash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishni qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot - umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ishlab chiqarish hamda ilmiy tadqiqot jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Mutaxassislik bo'yicha ilmiy amaliyot o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogini tuzilishi

Magistrantlar o'quv jarayoni davomida dual ta'lim olish imkoniyatlari va majburiyatlari batafsil yoritiladi.

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	AIA1104	Axborotlarni izlash va ajratib olish	120	4	1
1.03	ILB1204	Innovatsiya va loyihalarni boshqarish	120	4	2
1.04	ALT1204	Algoritmarni loyihalashtirish va tahlil qilish	120	4	2
1.05	MFO1304	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
1.06	PLTRT16	Pochta va logistika tizimlarida raqamli transformatsiya	180	6	2
1.07	XPXBL16	Xalqaro pochta xizmatlarida bojxona logistikasi	180	6	3
1.08	IPI1108	Ilmiy pedagogik ish	240	8	1-3
2.00		Tanlov fanlar	480	16	1,3
	Kvalifikatsiya	Pochta xizmatlarini tashkil etish muhandisi, pedagog-tadqiqotchi			
		Jami	1680	56	
		Ilmiy amaliyot	360	12	4
		Magistrlik dissertatsiyasini tayorlash	1560	52	1-4
		Jami	1920	64	
		Hammasi	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy kompetensiyalar, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'ekti, magistraturaning asosiy ta'lim dasturi (magistratura dasturi), magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari, magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari, umumiy kompetensiyalar, kasbiy kompetensiyalar, majburiy fanlar, tanlov fanlari, kvalifikatsiya, yakuniy davlat attestatsiyasi, malakaviy amaliyot, pochta aloqasining avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlari texnologiyasi, raqamli logistika, raqamli texnologiyalar, pochta texnologiyasini strategik boshqarish, ta'minot va sotuvni boshqarishda elektron xizmatlar, yetkazib berishda zahiralarini boshqarishning raqamli texnologiyalari, pochta transportlarida raqamli texnologiyalarni qo'llanilishi, intellektual transport tizimlari, taqsimotni modellashtirish, pochta jo'natmalarini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQUILGAN:

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**
Rektor B.Maxkamov



2024 yil " 14 " iyun
M.O'

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor _____ M.Boltabayev

2024-yil " 1 " avgust
M.O'

**Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti**

Rektor S.Turabdjanov

2024-yil " 14 " iyun
M.O'



**"O'zbekiston pochta" AJ
Ishlab chiqarish bo'yicha**

Direktor N.Xusyaenova

2024-yil " 13 " iyun
M.O'



**"UNICON.UZ Fan-texnika va marketing
tadqiqotlari markazi" MChJ**

Bosh direktor M. Maxmudov

2024-yil " 13 " iyun
M.O'

